



## INGLIZ HAMDA O'ZBEK SIYOSIY DISKURSIDA SHAXSNING GENDERGA OID O'ZIGA XOSLIGI

Adolat Asrorovna Kenjayeva (Asrorova),

O'zMU mustaqil tadqiqotchisi,

IRN Academy direktor o'rinbosari.

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18i.1612>

**MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ**

**Qabul qilindi:** 15-aprel 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 17-aprel 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-A

**Maqola raqami:** 52

**KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА**

gender, siyosiy diskurs, shaxs, ingliz va o'zbek tillari, madaniy munosabatlari

**ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ**

Maqola diskursiv va gender lingvistikasiga oid masalalarga qiziqishning ortib borishi natijasida ushbu ikki yo'nalishni yagona ilmiy tadqiqot doirasida birlashtirish imkoniyatlarini yoritadi. Diskurs ijtimoiy-madaniy munosabatlarning ajralmas qismi sifatida talqin qilinib, jamiyatdagi har bir individning turli diskurs turlarida ishtirokchi sifatida namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda gender lingvistikasining siyosiy va ijtimoiy nutqdagi o'rni, shuningdek, shaxsning gender identiteti diskurs orqali qanday shakllanishi tahlil qilinadi. Ingliz va o'zbek siyosiy diskurslari misolida genderga oid markerlar, metaforalar va kommunikativ strategiyalar qiyosiy ko'rib chiqiladi. Maqola lingvokulturologik hamda kognitiv yondashuvlar asosida gender va diskurs o'zaro aloqasining ijtimoiy identitetni shakllantirishdagi ahamiyatini ochib beradi. Natijalar zamonaviy lingvistika va sotsiologiya tadqiqotlari uchun nazariy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, gender va diskursiv tahlilning integratsiyasini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

**ABOUT THE PAPER**

**Accepted:** 15 april 2026

**Approved:** 17 april 2026

**Volume:** 18-A

**Paper number:** 52

**KEYWORDS**

gender, political discourse, personality, English and Uzbek languages, cultural relations

**ANNOTATION**

The article highlights the possibilities of combining these two directions within a single scientific research framework as a result of the growing interest in issues related to discursive and gender linguistics. Discourse is interpreted as an integral part of socio-cultural relations, and each individual in society is shown to be a participant in various types of discourse. The study analyzes the role of gender linguistics in political and social discourse, as well as how a person's gender identity is formed through discourse. Gender markers, metaphors and communicative strategies are comparatively considered on the example of English and Uzbek political discourses. The article reveals the importance of the interaction between gender and discourse in the formation of social identity based on linguoculturological and cognitive approaches. The results are of theoretical and practical importance for modern linguistics and socio-humanitarian studies, and serve to deepen the integration of gender and discursive analysis.

**Kirish.** Diskursiv va gender lingvistikasiga oid masalalarga bo'lgan qiziqishning ortib borayotgani ushbu ikki yo'nalishni yagona ilmiy tadqiqot doirasida birlashtirish imkonini yaratadi. Diskurs ijtimoiy madaniy munosabatlarning ajralmas qismi bo'lganligi sababli, jamiyatdagi har bir individ (shaxs) diskurs turlarining ishtirokchilari sanaladi.

Zamonaviy tilshunoslikda siyosiy diskursni o'rganish nafaqat lingvistik birliklar tahlili, balki ijtimoiy ong, ideologiya va gender munosabatlarning o'zaro ta'sirini aniqlash nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, siyosiy nutqda gender identikligining ifodalanishi shaxsning ijtimoiy rolini shakllantirish, siyosiy imij yaratish hamda auditoriyaga ta'sir o'tkazish jarayonida muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda ingliz va o'zbek siyosiy diskursida gender omilining lingvistik ifodasi masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa siyosiy nutqni faqat axborot yetkazish vositasi emas, balki ijtimoiy stereotiplar va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi murakkab kommunikativ tizim sifatida ko'rib chiqishni talab etadi.

Shu nuqtayi nazardan, gender va siyosiy diskurs o'rtasidagi o'zaro aloqalarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki sotsiologiya, madaniyatshunoslik va siyosiy kommunikatsiya sohalarini uchun ham muhim ilmiy natijalar beradi.

**Adabiyotlar tahlili.** E.I.Sheygal fikricha, hokimiyat uchun kurash siyosiy muloqot sohasining asosiy mavzusi va harakatlantiruvchi kuchi bo'lganligi bois, siyosiy diskurs yuqori darajadagi manipulyativlik (ta'sir o'tkazuvchanlik) bilan tavsiflanadi [7]. Lingvistlar e'tirofiga ko'ra, siyosiy diskursning bosh maqsadi auditoriyaga ma'lum harakat yoki qarashlarni siyosiy jihatdan to'g'riligini singdirish sababli siyosatchilar nutqida ramzlar (simvollar) keng qo'llaniladi. Siyosiy nutqning muvaffaqiyati esa qo'llanilayotgan ramzlarning auditoriya kayfiyati va e'tiqodi bilan qanchalik mos tushishiga bog'liq bo'lib, tinglovchining munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi, masalan: xalq orasida obro'-e'tiborga ega siyosatchilar ommaviy ongga kuchliroq ta'sir ko'rsatuvchi vositalardan foydalanish zaruratidan tashqari hollarda ta'siri nisbatan kuchsiz bo'lgan vositalardan foydalanib ham maqsadlariga erisha oladilar.

Ma'lumki, gender ijtimoiy tuzilma, ya'ni jamiyatda erkaklar va ayollar o'rni hamda rolini belgilovchi ijtimoiy model bo'lib, turli sohalardagi olimlar "erkak" va "ayol" haqidagi tasavvurlar nisbiy ekanligini ta'kidlaydilar, chunki bu tushunchalar har xil madaniyatlarda bir-biriga

to'g'ri kelmasligi mumkin. Ana shu tafovut "gender" tushunchasining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Erkaklar va ayollarning nutqiy xulq-atvor xususiyatlarini tizimli o'rganish XX asrning 1960–1970-yillarida boshlangan bo'lib, Gender lingvistikasining jadal rivojlanishi Robin Lakoffning "Language and Woman's Place" ("Til va ayolning jamiyatdagi o'rni") tadqiqoti bilan bog'liq. Feminizm harakati gender nazariyasining shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. A.V.Kirilina ta'kidlaganidek, feministlar jamiyat ongida patriarxatning hukmronligi mavjudligini ilgari surib, natijada barcha matnlar va diskursiv amaliyotlar erkak qadriyatlarini bilan belgilangan hamda bu qadriyatlar jamiyat a'zolariga majburiy tarzda singdirilayotganini qayd etganlar [3].

A.V.Kirilining e'tirofiga ko'ra, gender lingvistikasi feministik lingvistikadan kelib chiqqan bo'lib, u hozir ham tilni tanqidiy tahlil qilish yo'nalishi sifatida mavjud. Ushbu yo'nalishga ko'ra, til me'yorlarini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish zarur, chunki bu ongli ravishda amalga oshirilgan til normativlashuvi, ayniqsa, siyosiy diskursda samarali natijalar beradi [3]. Ayrim manbalarda esa erkak va ayol nutqining sintaktik darajadagi farqlari keng miqyosda o'rganilgan bo'lib, tadqiqotlarning aksariyati gender o'rtasida so'roq gaplardan foydalanishdagi preferensiyalarni tahlil qiladi. Tadqiqotchilarning fikricha, ayollarga xos yuqori darajadagi emotsionallik ularning nutqida undov gaplarning ko'proq qo'llanishi orqali ifodalanadi [1; 2; 4; 5]. Ushbu xususiyat ayol nutqining hissiy, ekspressiv va ijtimoiy jihatdan moslashuvchan tabiatini aks ettiradi.

Ingliz tilida so'zlashuvchi ayollar nutqi tahlilida aniqlanishicha, ular rozilik yoki norozilikni ifodalashda, shuningdek, o'z hissiy munosabatini bildirishda ko'pincha "dumli" yoki ajratilgan so'roq gaplardan (tag questions) foydalanadilar. Bu hodisa ingliz tilining xos sintaktik belgilaridan biri sifatida talqin etiladi va u ayol nutqining nozik ijtimoiy va hissiy funksiyalarini namoyon etadi. Robin Lakoff o'z tadqiqotlarida ushbu holatni "zaif til" (weak language) konsepsiyasi bilan izohlab, "ayollar nutqida "tag-question" larning ko'pligi ularning muloqotda mo'tadillik, samimiylik va hurmatni saqlashga intilishi, shuningdek, konfliktidan qochish strategiyasini tanlashini ifodalaydi" [9, P.136]. Binobarin, so'roq gaplarning turli shakllarda qo'llanilishi gender lingvistikasida ayollar va erkaklar nutqining pragmatik, sotsiokommunikativ hamda sintaktik farqlarini o'rganishda muhim empirik ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi.

Tilshunoslik tadqiqotlarida ayollar va erkaklarning nutqiy xulq-atvoridagi grammatik va pragmatik farqlar muntazam kuzatilib, jumladan, Trudgill ta'kidlaganidek, erkaklar buyruq maylidan foydalanadigan hollarda ayollar savol shaklini afzal ko'rishadi, bu esa ularning kommunikativ yumshoqlikka intilishlarini ifodalaydi [11]. Goroshkoning fikricha, erkaklar nutqida buyruq mayli ustun bo'lsa, ayollar nutqida shart mayli ko'proq qo'llaniladi [2]. Ayollar nutqining sintaktik tuzilishida fe'ning bevosita buyruq shaklidan holi bo'lgan, ammo rag'batlantiruvchi ma'noga ega gaplar ustunlik qiladi. Bu hodisa Brown va Levinson tomonidan ilgari surilgan "ijobiy" va "salbiy" muloyimlik strategiyalari bilan izohlanadi [8]. "Ijobjiy" hurmat suhbatdoshning ijobiy qiyofasini mustahkamlashga xizmat qiladi: ya'ni so'zlovchi suhbatdoshiga bo'lgan samimiyligini e'tirof etgan holda, u bilan hamfikr ekanligini ifodalaydi. Samimiy bo'lish, iltifot ko'rsatish, ma'lum ijtimoiy guruh ichidagi vaziyatni inobatga olgan holda do'stona muhit yaratish va kelishmovchilikning oldini olish – bularning barchasini "ijobiy" hurmat namunalari sifatida ko'rsatish mumkin. "Salbiy" hurmat shaxs mustaqilligi, uning shaxsiy hududi va chegaralari daxlsizligi saqlanib qolinishi zarurligiga xizmat qilishini nazarda tutadi. Nutqiy muloqotda ijtimoiy masofa va noqulaylik mavjudligiga ishora qiladigan, og'ir bosiqlik, vazminlik, rasmiyatchilik va xushmuomalalik ifodalari "salbiy" hurmat namunalari hisoblanadi. Ularning nazariyasiga ko'ra, ayollar odatda "ijobiy muloyimlik" strategiyasiga amal qilib, muloqotda yaqinlik, hurmat va hamdardlikni ifodalovchi shakllardan foydalanadilar; erkaklar esa "salbiy muloyimlik" strategiyasiga tayanib, o'z fikrlarini qat'iy, buyruq ohangida ifodalashga moyildirlar. Shu sababli, ayollar nutqida let yordamchisiga asoslangan buyruq gaplar yoki xushmuomalalik bilan ifodalangan so'rov shakllari, masalan, *Would you please...?* jumlasini keng qo'llaniladi. Bu, o'z navbatida, ayollar nutqiga xos bo'lgan yumshoqlik, diplomatik ifoda va ijtimoiy uyg'unlikka yo'naltirilgan kommunikativ strategiyani shakllantiradi.

**Metodologiya.** Ushbu tadqiqotda ingliz va o'zbek siyosiy diskursida gender identikligining lingvistik ifodalanishini o'rganish uchun diskursiv va gender lingvistikasiga asoslangan kompleks yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning nazariy bazasi kognitiv-pragmatik hamda lingvokulturologik konsepsiyalar bilan mustahkamlandi.

Empirik material sifatida ingliz va o'zbek siyosiy yetakchilarining rasmiy nutqlari va ommaviy siyosiy chiqishlari tanlab olindi. Ushbu materiallar diskurs birliklari sifatida tahlil qilinib, ularning leksik-semantik, pragmatik va stilistik xususiyatlari o'rganildi.

Tahlil jarayonida diskurs tahlili, qiyosiy metod hamda pragmatik yondashuvlar uyg'unlashtirildi. Bu usullar siyosiy nutqda gender markerlar, metaforik ifodalar va kommunikativ strategiyalarning milliy-madaniy hamda funksional xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi.

**Natijalar.** Siyosiy diskursning gender yo'nalganligi shundan iboratki, erkak siyosatchilardan odatda yuqori darajadagi ta'sirchanlik va kuchli kommunikativ intensivlikni, ayol siyosatchilardan esa, aksincha, yumshoqroq, ehtiyotkor va past intensiv nutq usullarini qo'llashi ijtimoiy jihatdan kutilgan me'yor hisoblanadi. Boshqacha aytganda, siyosiy muloqotda genderga xos nutq me'yorlari mavjud bo'lib, ular sotsiologik stereotiplar bilan uzviy bog'liq. Ushbu me'yorlar buzilganda, ya'ni, erkak siyosatchining nutqi sust, ta'sirsiz ohangda kechsa yoki ayol siyosatchining nutqi keskin, qo'pol va to'g'ridan-to'g'ri shaklda ifodalansa, bu holat nutqning perlokutiv samaradorligini (ya'ni auditoriyaga psixologik va ijtimoiy ta'sir darajasini) sezilarli darajada pasaytiradi. Binobarin, siyosiy diskursda gender identiklik nafaqat til vositalari tanlovi, balki nutq strategiyasi va pragmatik yo'nalishni belgilovchi determinant omil sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy arboblarning o'ziga xos jihatini til vositasida shakllantirish jarayonining muhim omili gender me'yorlari va ijtimoiy stereotiplarga muvofiqlikdir. N.Faircloughning qayd etishicha, "Buyuk Britaniya sobiq bosh vaziri Margaret Tetcherning keskin iqtisodiy islohotlariga qaramay, erkaklarga xos yetakchilik uslubi uning jinsi haqidagi ijtimoiy qarashlar va gender stereotiplariga muvofiq kelgan [10]. Shu bois, Tetcher jamoatchilik ongida "temir xonim" ("Iron Lady") timsolida mustahkam ijobiy siyosiy imijga ega bo'lgan.

Shuningdek, Buyuk Britaniyaning ikkinchi ayol yetakchisi Tereza Mey ham jahon siyosatchilari nazarida "Madam Breksit" taxallusi bilan namoyon bo'lib, uning gender identikligini til vositalari orqali shakllantirish mexanizmlarini hamda uning mamlakat siyosiy yetakchisi sifatida amalga oshirgan strategiyalarini lingvistik jihatdan tahlilga tortamiz:

"Nearly three years have passed since the public voted to leave the European Union. ... I came to office on a promise to deliver on that verdict. ... You the public have had enough. You are tired of the infighting. You are tired of the political games and the arcane procedural rows." Ushbu matn siyosiy, inqiroziy va o'zini oqlash mazmunida bosh vazir – Tereza Meyning xalqqa qaratilgan diskursi bo'lib, maqsadi – siyosiy qarorni

himoya qilish, ishonchni tiklash va auditoriyani ruhlantirishdan iborat. Shuningdek, Van Deykning siyosiy diskurs tahlilidagi "in-group alignment" (tinglovchini o'z tomoniga tortish) texnikasi, ayniqsa, "You, the public, have had enough" degan murojaati orqali xalqning hissiyotlari va charchoqlari bilan o'zini identifikatsiya qilish strategiyasi qo'llanilgan. Ta'kidlash joizki, "You are tired..." birkmasi xalqning hissiyotiga hamohang ichki empatiya mavjudligini ko'rsatish orqali ishonch uyg'otish, xususan, "I came to office on a promise to deliver on that verdict" matni esa yetakchining javobgarligini ta'kidlashi hamda nutqidagi "Move beyond the division..." jumlasini jamiyatni birlashtirishga undashdan dalolat beradi. Tereza Meyning nutqidagi empatiya, xalq bilan hissiy muloqoti, murojaati ayolga xos bo'lsa, qat'iylik, mas'uliyat, natijaga yo'nalganlik kabi elementlar erkak jinsiga mansub xususiyatlarni namoyon etadi.

Ma'lumki, zamonaviy tilshunoslikda gender kategoriyalariga e'tibor insonning til orqali o'z ijtimoiy va psixologik identikligi, ya'ni, shaxsini namoyon etish jarayoni bilan bevosita bog'liqligi genderning erkak (masculin) va ayol (feminin) ko'rinishlari turli kommunikativ vaziyat, madaniy kontekst va shaxsiy xususiyatlariga qarab o'zgaruvchan tabiat kasb etadi. Ushbu farqlanish bir nechta modellarning o'zaro birlashgan, alohida shakllarga nisbatan psixologik yaxlit tizimda o'z ifodasini topadi.

Ingliz va o'zbek siyosiy diskursida erkak siyosiy yetakchilarning son jihatdan ustunligi gender asimmetriyasini taqozo etsa-da, ingliz hamda o'zbek siyosiy nutqida "ayol-siyosatchi" obrazi shakllanib bo'lganligidan ayol shaxsining siyosiy faoliyatdagi roli va ijtimoiy maqomining mavjudligi dalillaydi. Qo'shimcha qilib keltirish lozimki, "siyosatchi ayolning turmush o'rtog'i" toifasi bilan parallel ravishda qo'llaniladi. Masalan, Britaniyaning "New Statesman" jurnali ma'lumotlariga ko'ra, ushbu toifa bir necha sotsiologik modellarga ajratiladi va quyidagicha tavsiflanadi:

- muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat yurituvchi va mustaqil qarashlarga ega shaxs "zamonaviy ayol" tarzida;

- erining siyosiy faoliyatida uni qo'llab-quvvatlovchi va muvaffaqiyatga yetishida yordam beruvchi ayol "kurashuvchan turmush o'rtog'i";

- turmush o'rtog'i siyosiy faoliyat bilan band bo'lgan davrda oilaviy barqarorlikni ta'minlovchi "sadoqatli do'st";

- turmush o'rtog'ining xiyonatiga yoki e'tiborsizligiga qaramay, unga sodiq va sabrli bo'lishga intiluvchi ayol tipi "tark etilgan ayol".

Mazkur modellarning tahlili shuni ko'rsatadiki, gender omili siyosiy diskursda nafaqat lingvistik vositalar tizimida, balki ijtimoiy qoliplar, madaniy qadriyatlarda ham ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan, Tereza Meyning til va kommunikativ strategiyalarida gender identikligi erkak yetakchilik modeli bilan uyg'unlashgan holda shakllanadi.

**Muhokama.** O'zbekistonda ayollar siyosatga faol kirib kelayotganligi, ularning davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotdagi mavqei yildan-yilga mustahkamlanib borayotganini kuzatish mumkin. Bu holat jamiyatda ayol shaxsining siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida faol ishtirok etishini nafaqat qo'llab-quvvatlash, balki uni tabiiy ijtimoiy hodisa sifatida qabul qilishga tayyorligidan dalolat beradi, masalan, Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbavevaning nutqida e'tirof etilgan ma'lumotga e'tiborimizni qaratamiz:

"Mehnat munosabatlarida ayollarning faol ishtiroki, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida ularning mavjudligi – bu nafaqat huquqiy masala, balki jamiyatning ijtimoiy barqarorligining muhim omilidir. Biz "ayol – jamiyatning barqarorlik ustuni" degan e'tiqodni amalga oshirish yo'lida harakat qilmoqdamiz". Tanzila Narbaveva nutqidagi "Mehnat munosabatlarida ayollarning faol ishtiroki..." parchasida ayol yetakchining ijtimoiy va siyosiy rolini legitimatsiya qiluvchi diskurs namoyon bo'lib, maqsadi ayollarning siyosiy qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini nafaqat huquqiy, balki jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida ko'rsatishdir. So'zlovchi "ayol – jamiyatning barqarorlik ustuni" degan metafora orqali ayol shaxsini milliy qadriyatlar tizimida barqarorlik ramzi sifatida talqin etadi. Bu leksik-semantik tanlov Narbavevaning ijtimoiy mas'uliyat va ishonchlilik asosidagi yetakchilik qiyofasini mustahkamlab, "biz" olmoshi orqali xalq bilan birdamlik, empatiya va ijtimoiy hamjihatlikdan dalolat beradi. Shu bilan birga, "ayollarning siyosiy ishtiroki – bu jamiyat barqarorligining omili" degan fikri mantiqiy asosni ta'minlaydi. Natijada, T.Narbaveva nutqida nafaqat siyosiy yetakchi, balki ayol sifatida ijtimoiy adolat, gender tengligi va oilaviy qadriyatlar muvozanatini ta'minlashga qaratilgan faol kommunikativ strategiyalarni qo'llab, shuningdek, gender muvozanatiga erishish, ayollar huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, mehnat munosabatlarida tenglikni ta'minlash, ayollarni siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish kabi dolzarb mavzular ustuvor o'rin egallaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek siyosiy diskursida gender identikligi qat'iy biologik kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy va kommunikativ konstrukt sifatida namoyon bo'ladi. Siyosiy

nutqda genderga xos deb qaraladigan lingvistik vositalar (muloyimlik strategiyalari, metaforik ifodalar, sintaktik tanlovlar) asosan ijtimoiy stereotiplar va madaniy kutishlar bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, ingliz siyosiy diskursida gender rollarining nisbatan yumshoqroq va pragmatik jihatdan moslashuvchan ifodalanishi kuzatilsa, o'zbek siyosiy diskursida esa an'anaviy ijtimoiy me'yorlar ta'siri kuchliroq saqlanib qolganligi seziladi. Biroq zamonaviy siyosiy jarayonlar bu farqlarning asta-sekin kamayib borayotganini va ayol siyosatchilar nutqida ham qat'iylik hamda strategik yetakchilik elementlari kuchayib borayotganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, genderga oid lingvistik markerlar siyosiy diskursda nafaqat kommunikativ uslubni, balki siyosiy imij va legitimlikni shakllantiruvchi muhim vosita sifatida ham xizmat qiladi. Bu esa gender

va diskurs o'rtasidagi munosabatning dinamik va kontekstga bog'liq ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Siyosatchilarning monologik nutqi tahlili shuni ko'rsatadiki, u tilning uslubiy darajasida o'ziga xos ekspressiv va pragmatik xususiyatlarga ega. Idioma va metaforalar siyosiy nutqning stilistik va emotsional jihatini belgilovchi vositalar sifatida xizmat qilib, siyosatchining nutqiy xulq-atvoridagi ekspressivlik darajasini, shuningdek, hissiy ta'sir darajasini belgilaydi. To'g'ri tanlangan metaforik ifoda tinglovchining e'tiborini jalb etish, uni ma'lum vaqt davomida ushlab turish hamda nutq mazmunini kognitiv-emotsional darajada kuchaytirish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Антинескул О.Л. Гендер как параметр текстообразования : учебное пособие / О.Л. Антинескул. – Пермь : Пермский университет, 2001. – 72 с.
2. Горошко Е. В. Политическая лингвистика: текст и дискурс / Е. В. Горошко. – М. : URSS, 2003. – 256 с.
3. Кирилина А. В., Томская М.В. Лингвистические гендерные исследования // Отечественные записки, 2005. №2. С. 96–112.
4. Ощепкова Г. А. Политический дискурс: теория и практика / Г. А. Ощепкова. – М. : Наука, 2003. – 312 с.
5. Степанова Е. В. Политический дискурс и коммуникация / Е. В. Степанова. – М. : ЛКИ, 2009. – 288 с.
6. Шевчук Ю.В. Гендерные особенности в англоязычном политическом дискурсе // Молодой ученый. – 2020. – №22 (312). – С.641-643.

7. Шейгал Е.И. Семиотика политического дискурса. – М. : Гнозис, 2004. – 324 с.

8. Brown P., Levinson S. C. Politeness: Some universals in language usage / P. Brown, S. C. Levinson. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.

9. Lakoff R. T. Language and Woman's Place / R. T. Lakoff. – New York: Harper & Row, 1975. – 83 p. – ISBN 0061320935.

10. Fairclough, I., & Fairclough, N. Political Discourse Analysis: A Method for Advanced Students. – London: Routledge, 2013. – 280 p.

11. Trudgill P. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society / P. Trudgill. – Harmondsworth: Penguin Books, 1974. – 216 p.